
Bolalar mehnatiga barham berish

Yosh avlod mamlakatning kelajagi bo'lib hisoblanadi. Ularni har tomonlama yetuk ilmi va tarbiyali qilib kamolotga yetkazish biz kattalarning burchimizdir. Shu sababli bugungi kunda mamlakatimizda bolalar mehnati va majburiy mehnatning barcha shakllariga barham berish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 44-moddasiga ko'ra, bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 3-moddasiga muvofiq, yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy printsiplaridan biri bu, mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash bo'lib hisoblanadi. Ushbu Kodeksning 118-moddasiga ko'ra, ishga qabul qilishga Mehnat kodeksining 20-moddasiga muvofiq shaxslar mehnatga oid huquq layoqatiga va muomala layoqatiga ega bo'lishi bilan, o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi. Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tashkilotlarining, kasb-hunar maktablarining, kollejlari va texnikumlarning o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, o'qitish jarayonini buzmaydigan yengil mehnatni o'qishdan bo'sh vaqtda bajarishi uchun ishga qabul qilishga — ular o'n besh yoshga to'lishi bilan ota-onadan birining (ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxsning) yozma roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Madaniy-tomosha tashkilotlarida, televidenie, radioeshittirish tashkilotlarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida, shuningdek professional sportchilar bilan ota-onaning har ikkisinining (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxsning) roziligi hamda vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan, sog'lig'iga va ma'naviy kamol topishiga ziyon yetkazmasdan asarlarni yaratish va (yoki) ijro etishda (ko'rgazmaga qo'yishda) ishtirok etish uchun o'n besh yoshga to'lmagan shaxslar bilan mehnat shartnomasini tuzishga yo'l qo'yiladi. Bolalar mehnati va majburiy mehnatning barcha shakllariga barham berish masalasiga oid xalqaro va mintaqaviy hujjatlar hamda xorijiy mamlakatlarning qonunchiligini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida O'zbekiston ko'plab Xalqaro mehnat tashkilotiga a'zo bo'ldi va ushbu tashkilotning 14 ta xalqaro-huquqiy hujjati, jumladan, 8 ta asosiy konventsiyasini ratifikatsiya qildi. Ular orasida "Bolalar mehnati va majburiy mehnatga qarshi kurashishga doir" konventsiya ham bor. Yurtimizda bolalar mehnati hamda majburiy mehnatga barham berish borasidagi tizimli ishlar tufayli yildan-yilga muvaffaqiyatga erishilmoqda. Xususan, 2020 yilda O'zbekiston hukumati Xalqaro mehnat tashkiloti bilan birgalikda amalga oshirgan monitoringlar bo'yicha ijobiy xulosa olingan. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida majburiy mehnat holatlari uchun javobgarlik masalalari ko'zda tutilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 51-moddasida bunday holatlar uchun tegishli ma'muriy javobgarlik hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 1481-moddasida, voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bolalar mehnati muammolarini hal qilishda jamoatchilikni xabardor qilish hamda safarbar etish maqsadida bugungi kunga qadar ko'plab davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar hamda muassasalar tomonidan turli tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Xususan joylarda mahallalarga borilib, aholi orasida targ'ibot tadbirlari, fuqarolar bilan uchrashuvlar o'tkazilib kelinmoqda. Xulosa qilib aytganda, bolalar mehnatiga barham berish borasida eng avvalo ota-onalarimiz mas'uldirlar, chunki farzand oilada o'sib, ulg'ayib kamolotga yetadi, agarda oilada tinchlik bo'lib, moddiy yetishmovchilik bo'lmasa o'z-o'zidan bolalarning mehnat qilishga ehtiyoji yuzaga kelmaydi. Shundan ekan biz ota-onalar o'z farzandlarimizning munosib turmush kechirishlari uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratib berish juda muhim hisoblanadi. Bu o'z navbatida kelgusida ularning hayotda o'z o'rinlarini topish hamda bolalar mehnatiga barham berilishiga olib keladi. Zero kelajakni mustahkam va ishonchli qilib qurish uchun har birimiz burchli bo'lib hisoblanamiz.

Yo. To'ychiev,
Fuqarolik ishlari bo'yicha
Rishton tumanlararo sudi sudyasi

2024-10-31 14:48:56